

**BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINI INTEGRAL YONDASHUV  
ASOSIDA MA'NAVIY – AXLOQIY KOMPETENLIKLERINI TAKOMILLASHTIRISH**

D.Nabiyeva

SamDU

**Annotatsiya:** Maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari ta'lim jarayonida o'quvchilarga integral yondashuv va kompetentlik asosida ma'naviy -axloqiy tarbiyani takomillashtirish. Buyuk allomalarimiz qoldirgan boy merosidan foydalaniib, ularni ta'lim jarayonida qo'lash orqali o'quvchilarda umuminsoniy fazilatlarni rivojlantirishni tizimli tahlil etishga harakat qilingan.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim jarayoni, integral yondashuv, ma'naviy – axloqiy tarbiya, kompetentlik.

**Аннотация:** Статья начинается с подготовка будущих учителей начальных классов, на основе комплексного подхода и компетентности, обогащения духовно-нравственного воспитания к наследиям великих учёных. Использование этих наследий в образовательном процессе, направлено на развитие и воспитание в учащихся общечеловеческих качеств.

**Ключевые слова:** Учебный процесс, комплексный подход, духовно-нравственное воспитание, компетентность

**Annotation:** The article deals with the training of future primary school teachers. The spiritual approach of students on the basis of an integrated approach and competence in the process the rich left by our great scholars through the improvement of moral education its application in the education its application in the educational process, taking advantage of the heritage, and is universal in students an attempt has been made to make a systematic analysis of the development of the quality.

**Key Words:** Educational process, integrated approach, spiritual and moral education, competence

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach ta'lim sohasiga tubdan o'zgartirishlar kiritildi. Ayniqsa milliy madaniyatimiz va qadriyatimiz qayta tiklandi. Allomalarimiz qoldirib ketgan boy meroslari qayta yuz ochdi. Boshqa davlatlar muzeyini bezab turgan bobolarimiz yozib qoldirgan durdona kitoblardan nusxalar olinib, o'zbek tilida qayta chop etildi. Endilikda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari yangi innovatsion ta'lim bilan birgalikda allomalarimiz qoldirgan ilmiy merosimizni puxta o'rganib chiqishlari kerak. Ta'lim jarayonida har bir fanda mavzuga doir ma'naviy – axloqiy mazmunga ega bo'lgan ma'lumotlardan misol va namunalar keltirib, hayot bilan bog'lashi, kelajakda duch kelinadigan muammoli vaziyatlardan oqilona yo'l bilan chiqib keta olishlarini, yani kompetenliklerini rivojlantirishlari kerak.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2020 – yil 24-yanvar Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasiga yo'llagan Murojaatnomasida: "Biz O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohatlar, ilm-marifat va innovatsiya bilan erisha olamiz. Buning uchun avvalambor, tashabbuskor islohotchi, bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi

avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur. Shuning uchun ham bog'chadan boshlab oliv o'quv yurtigacha - ta'limning barcha bog'inlarini isloh qilishni boshladik. Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm - ma'rifat, yuksak ma'naviyat kerak. Ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, t o'g'ri yo'ldan adashish bo'ladi. Sharq donishmandlari aytganidek, "Eng kata boylik – bu aql – zakovat va ilm, eng kata meros – bu bilimsizlikdir!...". "2020-yilda xalqimiz tarixining murakkab davrlarida, ma'rifat ma'shalasini baland ko'tarib chiqqan ulug' alloma va jamoat arbobi Mahmudxo'ja Behbudiyning 145 yillik tavallud sanasi keng nishonlanadi...", "Mamlakatimizda "Jaholatga qarsh – ma'rifat" degan ezgu g'oya asosida islom dining insonparvarlik mohiyati, tinchlik va do'stlik kabi olivjanob maqsadlarga xizmat qilishini targ'ib etish kun tartibimizdagi doimiy masala bo'lib qoladi. Joriy yilda hadis ilmining sultonı Imom Buxoriy, kabi kalom ilmi asoschisi Abu Mansur Motrudiylar va uning davomchisa Abu Muin Nasafiyning ilmiy merosiga bag'ishlangan hamda diniy bag'rikenglik mavzularida xalqaro ilmiy-konferensiyalar tashkil etiladi" [2].

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonida integral yondashuv asosida yoshlarni ongi va qalbiga milliy qadriyatlarimiz va ma'naviy – axloqiy tarbiyani yanada kuchli singdirishi, ta'lim jarayonida ta'lim va tarbiyani uzviylashtirish orqali o'quvchilarda umuminsoniy fazilatlarini rivojlantirishi lozim. Shu bilan birgalikda, huquqiy, iqtisodiy, ekalogik va sanitariya-gigienik ta'lim - tarbiyani ham birgalikda takomillashtirishi lozim.

O'quvchi olgan bilimini hayotda qo'llay olmas ekan, bu bilim faqat nazariyaligicha qolib ketadi. Shu bilan birga, yoshlarda davr talabidan kelib chiquvchi yangi masala va muammolarni yechish uchun zarur bo'lgan sifatlarni shakllantirish pedagogik faolyatni ustivor vazifasi hisoblanadi. Buning uchun avalo pedagogning o'zi yangi pedagogik texnologiyalar bilan birgalikda, boy ilmiy merosimizni ham o'qib, o'rgangan bo'lishi lozim. O'zgarib boruvchi mehnat va hayot sharoitlariga muofiq ijodiy faolyat bilan shug'ullana olish ko'nikmalari tarkib topgan bo'lishi lozim.

2019 yil 23-avgustdagagi yig'ilishda Prezidentimiz tomonidan "Milliy goya", "Din tarixi" va "Vatan tuyg'usi" uyg'unligiga asoslangan "Tarbiya" fanining kiritilishi taklif qilingan edi.[3]. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyundagi 422-sonli qaroriga ko'ra Xalq ta'limi vazirligi 2020-2021 o'quv yillarida maktablarning 1-9-sinflarida va 2021-2022 o'quv yillarida 10-11 sinflarda yangi fanni joriy etish rejasini o'z ichiga olgan hujjat loyihasini ishlab chiqdi [4].

Pedagog va psixolog olimlarning butun bir avlodni ana shu shaxs va jamiyat aloqalari tizimida insonning tub mohiyatini anglash, uning rivojlanishi va kamol topishi qonuniyatlarini izlaganlar. Pedagoglik hamma davrda aniq tarixiy tavsifga ega va shunday bo'lib qoladi, chunonchi u yoshlar tarbiyasi bilan bog'liq. Tarbiya va pedagogik faoliyat bir zanjirning ikki xalqasidir. Tarbiya ijtimoiy – tarixiy tavsifga ega. Abu Nasr Farobi, A. Navoiy, Ibn Sino, Beruniy kabi yuzlab Sharq allomalari ham bu o'zaro bog'liqlikning falsafiy va ijtimoiy sirlarini ochishga o'zlarining eng durdonas asarlarini bag'ishlaganlar. Yuqorida nomlari ko'rsatilgan mutafakkirlar avvalo madrasada mudarrislik qilganlar.

“Ikkinchi muallim” sifatida dunyoga mashhur Abu Nasr Forobiy pedagogik madaniyat haqida shunday deydi: “Muallim shogirdlariga nisbatan o‘ta hokimlikka ham, o‘ta bo‘slikka ham yo‘l qo‘ymasligi lozim, chunki o‘ta hokimlik shogirdda muallimga nisbatan nafrat uyg‘otadi. Shogird muallimning bo‘slligini sezsa, unda muallimga uning ilmiga nisbatan sovish va mensimaslik paydo bo‘ladи” [5; 17-b.].

Ma’lumki, Abu Ali Ibn Sino dunyoda tibbiyot fanining asoschilaridan biri sifatida mashhurdir. Lekin uning inson ruhiyati va jismoniy uyg‘unligi, insonni bir butunlikda o‘rganish ta’limoti yetarli o‘rganilmagan. U “yaxshi va yomon xulqning hammasi sharoit va tarbiya, odatlanish natijasida vujudga keladi”. Inson muloqatga samimiylilik nutq tovushi, ovoz ohangi kabi ta’sir vositalarini ruhshunos sifatida ifodalaydi. “Tabiatning insonlarga in’om etgan yana biri oliy fazilat inson nutqidir. Inson o‘zining ana shu nutqidagi tovush ohanglari orqali o‘z ifodalarini izhor etadi.” - deb yozadi.

Qadimgi Sharq, pedagogikasining ajoyib asarlaridan biri “Qobusnoma”da ham nutq odobi va madaniyati haqida ibratli gaplar aytilgan bo‘lib, ular hozirda ham ma’lum darajada o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

“Qobusnoma” Kaykovus t omonidan 1082-1083 yillarda yaratilgan bo‘lib, 44 bobdan iborat. Uning 7 - boblari so‘z odobi haqidadir. Asar muallifining farzandiga qilgan nasihatlari sifatida yozilgan. U farzandini yoqimli, muloyim, o‘rinli so‘zlashga, behuda gapirmaslikka undaydi: “Yaxshi so‘zlashga o‘rgan va muloyim so‘zlashdan boshqa narsani odat qilma, negaki qanday so‘zni gapishtini istasang, til shuni gapisradi. So‘zni o‘z j oyida so‘zla, joyida aytilmagan so‘z agar u yaxshi so‘z bo‘lsa ham yomon ko‘rinadi”. “Kishi suhandon va notiq bo‘lishi lozim”. Har bir notiq o‘z nutqi ustida ko‘p mashq qilishi, xalq oldida nutq so‘zlaganda yoqimli gapishtishi, xalqning e’tiborini qozonishi zarur. Xalq, oldida gapirganda so‘zing go‘zal bo‘lsin, bu so‘zni xalq qabul qilsin. Xaloyiq, sening so‘zing bilan baland darajaga erishganiningni bilsin, chu hech bir so‘zni buzma, to‘g‘ri ta’rifla, so‘zni bir xil gapir”.

Kishi kamtar bo‘lishi kerak, o‘zini xaq orasida oddiy, kamtar tutishi lozim, mahmadonalik qilish, ko‘p gapishtish donolik belgisi emas, “Ey farzand” agar sen har qanday notiq bo‘lsang ham, o‘zingni bilganlardan past tutgil, toki so‘z bilimdonligi vaqtida bekor bo‘lib qolmagaysan. Ko‘p bilgulu, oz so‘zla, kam bilsang ko‘p so‘zlama, chunki aqlsiz kishi ko‘p so‘zlaydi, deganlarki, jim o‘tirish salomatlik sababidir. Ko‘p so‘zlovchi aqli odam bo‘lsa ham. Xalq uni aqlsiz deydi...” [6; 46-47-b].

Keyingi davr Sharq va O‘rta Osiyo allomalar, ma’naviy va ma’rifiy darg‘alari pedagogik faoliyat mohiyati, uning – ijtimoiy iqtisodiy tavsifi to‘g‘risida qimmatli so‘zlar aytganlar. Buni biz Abdulla Avloniy, Professor Abdurauf Fitrat, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek, akademik G‘afur G‘ulom ta’limotida yaqqol ko‘ramiz.

Buyuk ma’rifatparvar muallim mohir tadqiqotchi Abdulla Avloniy ta’lim tizimi, o‘qitishning takomillashtirish, o‘qituvchi malakasini shakllantirish bo‘lg‘usi o‘qituvchilarni tayyorlash muammolariga mutloqo yangicha yondashgan olimdir. U o‘qituvchining shaxsiy sifatlari, axloqi, odobi, bilimdonligi, ziyrakligi, topqirligi, farosatiligi, aql zakovatliligi ta’lim va tarbiya uchun asosiy negiz ekanligini ta’kidlab o‘tadi. Ayniqsa, uning fikricha,

ijodiy izlanish, o'qish va o'qitishning yangi shakl, uslub hamda vositalarini qidirish o'qituvchilarning eng muhim sifatlaridan biridir [7; 32-b].

Jumladan Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek pedagogik faoliyat, aniqroq aytadigan bo'lsak, o'qituvchi va uning jamiyatdagi o'rni to'g'risida quyidagi fikrlarni bayon etadi: "O'qituvchi – yer yuzidagi asosiy kash. U bo'lmasa fiziklar ham liriklar ham bo'lmas edi".

Yuqorida buyuk bobokalonlarimizning bizga qoldirgan boy ilmiy meroslaridan bir tomchisini misol tariqasida keltirib o'tdik xolos. O'rganib tadqiq etishni xohlasak oldimizda cheksiz ummon turibdi. Endi biz bu ilmiy meroslardan integral yondashuv asosida fanlarning kerakli joyida oqilona foydalaniib o'quvchilarga yetkazib berolsak, o'quvchilarning fanlarga bo'lgan qiziqlishi ortadi va ularda umuminsoniy fazilatlar yanada rivojlanadi.

Bizning nazarimizda, zamonaviy o'qituvchi qiyofasida quyidagi fazilatlar namoyon bolishi kerak:

1. O'qituvchi jamiyat ijtimoiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar mohiyatini chuqr anglab yetishi hamda bu borada o'quvchilarda to'g'ri, asosli ma'lumotlarni bera olishi lozim.
2. Zamonaviy o'qituvchining ilm, fan texnika va texnologiyalari yangiliklari va yutuqlaridan xabardor etish talab etiladi.
3. O'qituvchi o'z mutahassisligi bo'yicha chuqr, puxta bilimga ega bo'lishi, o'z ustida tinimsiz izlanishi lozim.
4. O'qituvchi pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilishi, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyat tashkil etishi kerak.
5. O'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonida eng samarali shakl, metod va vositalardan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bolmog'i lozim.
6. O'qituvchi ijodkor, tashabbuskor va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lishi shart.
7. O'qituvchi yuksak darajadagi pedagogik mahorat, chunonchi, kommunikativlik layoqati, pedagogik texnika (nutq, yuz, qo'l-oyoq va gavda harakatlari, mimika, pantomimika, jest) qoidalarini chuqr o'zlashtirib olishlari kerak.
8. O'qituvchi nutq madaniyatiga ega bo'lishi zarur, uning nutqi quyidagi xususiyatlarni o'zida aks ettira olishi kerak.
  - a) nutqning to'g'riliği;
  - b) nutqning aniqligi;
  - v) nutqning ifodaviyligi;
  - g) nutqning sofligi (uning turli sheva so'zlardan holi bo'lib, faqat adabiy tilda ifoda etilishi;
  - d) nutqning ravonligi;
  - j) nutqning boyligi; (hikmatli so'zlar, ibora va maqollar, matallar va ko'chirma gaplardan o'rinli va samarali foydalana olish).
9. O'qituvchi kiyinish madaniyati (soda, ozoda, bejirim kiyinishi), ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchining diqqatini tez jalb etuvchi turli xil bezaklar (oltin,kumush,

taqinchoqlar)dan foydalanmasligi, yosh, gavda tuzilishi, yuz qiyofasi, hatto, soch rangi va turmagiga muvofiq ravishda kiyinishni o'zlashtirishga erishishi lozim.

10. O'qituvchi shaxsiy hayotda pok, atrofdagilarga o'rnak bola olishi lozim.

O'qituvchi muloqot jarayoning faol ishtirokchisi sifatida o'zida bir qator sifatlarning tarkib toptirishiga erishishi zarur. Chunonchi u eng avvalo, mulohazali, bosiq, vaziyatni to'g'ri baholay oladigan. Mavjud ziddiyatlarni bartaraf etishning uddasidan chiqa olishi zarur. O'quvchi, ota-oanalar hamda hamkasblari bilan muloqot jarayonida fikrini aniq va to'la bayon etilishiga ahamiyat qaratishi maqsadga muofiq. Ular bilan munosabat so'zni salbiy holatlar haqidagi dalillarni keltirishdan emas, aksincha, suhbatdoshiga nisbatan hayrihohlik, samimiylilik, do'stona munosabat sezilib turishi, shuningdek imkon qadar ko'tarinki kayfiyatda bo'lishi zarur[8].

Pedagogik mahoratga ega bo'lish ta'lim-tarbiya samaradorligini ta'minlash garovi bo'libgina qolmay, ayni vaqtida o'qituvchining jamoadagi obro'-e'tiborini ham oshiradi, o'qituvchiga nisbatan hurmat yuzaga keladi.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida bo'lajak pedagoglarda kasbiy kompetentlikni takomillashtirish asosida "Jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qatiy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohatlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatni rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish lozim" – deb ko'rsatib o'tgan [1].

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi ijtimoiy moslashuvchanlik ega bo'lishi, ta'lim jarayonida o'quvchilar bilan muomala madaniyati qonun-qoidalariga rioya qilish lozim Zamonaviy ta'limning asosiy maqsadi jamiyat va davlat uchun har tamonlama rivojlangan, jamiyatga, mehnat faoliyatiga ijtimoiy moslashuvchan, o'z ustida ishlay oladigan shaxsni tayyorlashdan iborat. Demak, har tamonlama rivojlangan shaxs tarbiyasida pedagoglarning kompetentlik darajasi muhim ahamiyatiga ega. Pedagogika fanida pedagogik-psixologik kompetentlik tushunchasi pedagogning ta'lim-tarbiya jarayonida eng yuqori darajada natijaga erishishi, yuqori kasbiy salohiyat, shuningdek muloqotchanlik va ijobiy fazilatlarga ega bo'lishidir.

Xulosa qilib aytganda, milliy va xorijiy tajriba ijtimoiy va barqaror pedagogik ta'lim rivojinining eng muhim komponenti sifatida Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida integral yonsashuv asosida ma'nnaviy axloqiy kompetentlikni takomillashtirishning mazmuni va amaliy - texnologik tizimini ishlab chiqishni o'zida muhim pedagogik muammoni aks ettiradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. // Harakatlar strategiyasi asosida j adal taraqqiyot va yangilanish sari. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashiriyot - matbaa ijodiy uyi, 2017. – 92 b.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoevning 2020-yil 24- yanvardagi Oliy Majlisga yo'llagan Muroaaajatnomasi. [www.pv.uz](http://www.pv.uz).
3. Prezident Sh. Mirziyoyevning 2019-yil 23-avgustdag'i yig'ilish nutqi. [www.gazeta.uz](http://www.gazeta.uz).
4. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyundagi 422-sonli qarori. [lex.uz](http://lex.uz)
5. Abu Nasr Forobiy "Baxt - saodatga erishuv yo'llari" 17 b.
6. Kaykovus "Qobusnoma" asaridan Toshkent "O'zbekiston" 1997 y. 46-47 b.
7. Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" asari 32 b.
8. M. X. Toxtaxodjayeva "Pedagogika" Toshkent 2006-yil. 17-18 b.